



AMERİKANİNG JAHON BANKI BİLAN HAMKORLİĞİ, JAHON MOLİYAVİY- İQTİSODİY İNQİROZİNİNG AQSH İQTİSODİYOTİGA TA'SİRİ (2007-2008).

Sattorov Firdavs Ulug'bek o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada AQSHning Jahon Banki bilan hamkorligi, Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqorizining AQSH iqtisodiyotiga ta'siri (2007-2008), Xomashyo va neft narxining jadal sur'atlarda oshishi, AQSH hukumatining inqirozga qarshi kurashishi, iqtisodiyotni tiklashi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: BMT, XVF, XTTB, Janubiy-sharqiy Osiyo, G'arbiy Yevropa, Rossiya, "Bear Sterns", "Goldman Sachs".

Аннотация: В данной статье представлена информация о сотрудничестве США со Всемирным банком, влиянии мирового финансово-экономического кризиса на экономику США (2007-2008), быстрым росте цен на сырье и нефть, борьбе правительства США с кризисом и восстановлении экономики США. экономики.

Ключевые слова: ООН, МВФ, ОДКБ, Юго-Восточная Азия, Западная Европа, Россия, «Bear Sterns», «Голдман Сакс».

Annotation: This article provides information on the US cooperation with the World Bank, the impact of the global financial and economic crisis on the US economy (2007-2008), the rapid increase in the price of raw materials and oil, the US government's fight against the crisis, and the recovery of the economy.

Keywords: UN, IMF, CSTO, Southeast Asia, Western Europe, Russia, "Bear Sterns", "Goldman Sachs".

Turli mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarining turli – tumanligi iqtisodiy rivojlanish darajasini qandaydir bitta nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda baholashga imkon bermaydi. Buning uchun quyidagi bir qancha asosiy ko'rsatkichlar va mezonlardan foydalaniladi: mutlaq va nisbiy YaIM (YaMM); milliy daromad va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad; milliy iqtisodiyotning tarmoqli strukturasi; mamlakat eksporti va importi strukturasi; aholi turmush darajasi va sifati va boshqalar. Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va uning jahon xo'jaligidagi ishtiroki – bu tarixiy tushunchadir. Milliy iqtisodiyot va butun jahon xo'jaligi rivojlanishining har bir bosqichi asosiy ko'rsatkichlar tarkibiga bu yoki u o'zgartirishlarni kiritadi. Mamlakatning jahob xo'jaligida egallagan o'rnini aniqlash uchun bir qancha yondashuvlar mavjud bo'ladi. Ular orasida eng oddiysi bo'lib jaho iqtisodiyotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad darajasiga qarab mamlakatlar guruhlariga bo'ishdir.

Bunday yondashuv BMT¹³, XVF¹⁴, XTTB¹⁵ tomonidan amalga oshiriladi (mamlakatlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mutlaq daromad ko'rsatkichlari har yili hisoblab

¹³ **Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)** — Yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. 1945-yil 24-oktyabrdan tuzilgan. BMTni barpo etish haqidagi qaror AQSh, Birlashgan Qirollik, Xitoy va Sovet Ittifoqi tashqi ishlari vazirlarining Moskvadagi kengashida 1943-yilda, Ustavi esa San Francisco konferensiyasida 1950-



boriladi). Masalan, XTTB daromad darajasiga qarab mamlakatlarni uch guruhga bo'ladi. Jahon xo'jaligida mamlakatlarni tasniflash va ularning jahon takror ishlab chiqarish jarayonidagi rolini baholash uchun boshqa yondashuvlar ham mavjud. Bugungi kunda jahonda yuqorida aytib o'tilgan ijtimoiy – iqtisodiy ko'satkichlarning o'xshashligi bilan xarakterlanadigan bir qancha davlatlar guruhlari mavjud. Dunyo o'z ijtimoiy-iqtisodiy tabiatiga ko'ra nihoyat darajada xilma-xildir.

Biroq ushbu mamlakatlar guruhlari o'rtasida nihoyat darajada aniq chegarani belgilash imkonsizdir. Masalan, bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarning butun bir guruhini – Janubiy – sharqiy Osiyo mamlakatlari, xususan Janubiy Koreya, Gongkong va Tayvan, Braziliya va Argentina, shuningdek boshqa mamlakatlarni bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha jahoning sanoati rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiritish mantiqlidir¹⁶. Biroq ular boshqa muhim ko'rsatkichlar darjasasi bo'yicha (ijtimoiy qarama-qarshiliklarning chuqurligi, mintaqaviy rivojlanishning notekisligi va boshqalar) hali ham an'anaviy tarzda rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiradi. Bir paytning o'zida shunhasiz rivojlangan mamlakatlar qandaydir ma'noda milliy ishlab chiqarish kuchlarini sifat jihatidan rivojlantirish borasida kechikishayotgan bo'lib, bu ijtimoiy mehnat unumdorligining o'sishini to'xtatmoqda. Masalan, Sharqiy Yevropa mamlakatlari va Rossiyada bu ko'rsatkich G'arbiy Yevropa mamlakatlari rivojlanishing atigi 50% ini tashkil qiladi xolos.

AQSh Jahon Banki Guruhi bilan dunyo mamlakatlaridagi iqtisodiy-ijtimoiy muammolarini hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro hamkorlikni rivojlaniruvchi eng asosiy donor mamlakat hisoblanadi. Amerika Qo'shma Shtatlari Jahon Banki Guruhi missiyasini saxiylik bilan qo'llab-quvvatlovchi uzoq tarixga ega. AQSh asosan, rivojlanayotgan hamda o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlariga ta'lim uchun kam foizli kreditlar va grantlar, eng kambag'allarga mamlakatlarga mo'ljallangan Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasining sog'liqni saqlash, infrastruktura, qishloq xo'jaligi, aloqa, transport, bank tizimini, iqtisodiy va institutsional rivojlanishga qaratilgan. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda sog'liqni saqlash, ta'lim, infratuzilma, atrof-muhit, boshqaruv va korrupsiyaga qarshi dasturlarning eng katta moliyachisidir. Jahon banki dasturlari global barqarorlikni ta'minlovchi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish orqali kam ta'minlangan insonlar uchun imkoniyatlarni kengaytirishda hayotni saqlab qolish va yaxshilashga yordam beradi.

Qo'llab-quvvatlangan ishonch fondi orasida:

- ✓ Afg'onistonni qayta qurish maqsadli jamg'armasi,
- ✓ USAID, Jamoatchilikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy dastur
- ✓ Ruanda - yo'llarni rivojlanirish loyihasi
- ✓ OITS, sil va bezgak uchun global fond

yilda qabul qilindi. BMT Ustaviga dastlab 51 davlat imzo chekkan, 2000-yilda esa ular soni 189 taga yetgan. Hozirgi kunda 193 davlat a'zo hisoblanadi.

¹⁴ **Xalqaro valyuta fondi**, XVF (IMF; International Monetary Fund) — BMT ning ixtisoslashgan muassasasi, a'zo mamlakatlarning valyuta hamkorligini amalga oshiradigan xalqaro tashkilot. 1944-yilda BrettonVuds (AQSH) da o'tkazilgan xalqaro valyutamoliya kongressida Jahon banki bilan bir vaqtida ta'sis etilgan (qarang BrettonVuds bitimi). 1947-yil mart oyidan o'z faoliyatini boshlagan

¹⁵ **Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki**, XTTB (IBRD, International Bank for Reconstruction and Development) — BMTning ixtisoslashgan muassasasi, Jahon banki guruhiga kiradi. Xalqaro valyuta fondi bilan bir vaqtida, BMTning Olda BrettonVuds (AQSH)da o'tkazilgan xalqaro valyutamoliya konferensiysi qaroriga ko'ra tashkil etilgan. 1946-yildan o'z faoliyatini boshlagan. A'zo davlat soni — 181 ta (1999). Unga faqat davlatlarga a'zo bo'lishi mumkin. Shtabkvartirasi Vashingtonda.

¹⁶ B.A. Islamov, N.S. Ismailova T.A. Hasanov, I.T. Danaboyev A.S. Zikriyoev, Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti, Toshkent 2018 y. B – 27.



- ✓ Yashil Texnologiyalar Fondi (Green Economy)
- ✓ Xalqaro qishloq xo'jaligi tadqiqotlari bo'yicha maslahat guruhi
- ✓ (CGIAR) Multi Donor Trust Fund
- ✓ Global qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi dasturi¹⁷

Qo'shma Shtatlar Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining 15,82 foiz aktsiyalariga egalik qilib ovoz berish huquqining 14,97 foiziga ega. Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Jahon Bankining kambag'al mamlakatlar uchun jamg'armasi ovoz berish huquqining 10,46 foizini egallaydi¹⁸. Xalqaro moliya korporatsiyasi Bankning xususiy sektoridagi aktsiyalarining 23,73% va ovoz berish huquqining 22,45 foiziga. Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligida 18,39% va ovoz berishning 15% ovozga ega.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining AQSh iqtisodiyotiga ta'siri. Hozirgi global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning kelib chiqish sabablari borasi- da iqtisodchi olimlar, amaliyotchilar qarashlarida turlicha yondashuvlar mavjud. Ayrimlar bu inqiroz AQSh iqtisodiyotida ro'y bergan iqtisodiy tanglik holatidan boshlanganligini ta'kidlashsa, boshqalari oltin stantartidan voz kechish va bozor iqtisodiyoti tizimining kamchiligi bilan bog'liq deyishmoqda¹⁹. Shu bilan birga hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi asosida fundamental, xusan, makroiqtisodiy, mikroiqtisodiy va institutsional omillar yotganini qayd etish lozim. Tahlillar AQSh iqtisodiyotida ro'y bergan retsessiya sabablarini quyidagicha tasniflash imkonini beradi.

Uy-joy bozorida kapitalning ortiqcha to'planishi. 2000-yilda fond bozo- ridagi pasayishlar tufayli aholi jamg'armalari, asosan, uy-joy qurilishi sektoriga yo'naltirildi. Ushbu holat uy-joy narxlarining keskin oshishiga olib keldi. Xususan, 1997-2006-yillarda tipik Amerika uylarining narxi o'rtacha 124 %ga qimmatlash- di. 1990-yillarda uylarning o'rtacha narxi oilalarning 2,9-3,1-yillik daromadi miq- dorida tebranib turgan bo'lsa, 2004-yilga kelib ushbu ko'rsatkich oilalarning yillik daromadidan 4 martaga, 2006-yilda esa 4,6 martaga oshib ketdi²⁰. Uy-joy bozorida boshqa sohalarga nisbatan kapitalning ortiqcha to'planishi moliyaviy-iqtisodiy inqirozning asosiy katalizatoriga aylandi.

Jadal sur'atlarda kengayayotgan ipoteka bozori bilan bog'liq holda chiqarilgan derivativlarning ortiqcha ishlab chiqarilishi. Ipoteka bozoriga quyidagi ikki yo'nalishga oid omillar ta'sir etgan. Birinchidan, Federal zaxira tizimi (FZT) qayta hisobga olish stavkasining pastligi (2004-yilda 1 %) va xorijdan arzon moliyaviy resurslarning jalb etilishi tufayli kredit resurslar qiymatining arzonlashuvi. Bu holat ipoteka bozorida keng miqyosli qarz olish, shu jumladan, «ishonchsiz qarz oluvchilar» tomonidan qarz olishga olib keldi. 2007-yilning martida «ishonchsiz qarz oluvchilar» soni 7,5 mln. kishiga va ular olgan kreditlar miqdori esa 1,3 trln²¹. dollarga yetdi. Ushbu turdagи kreditlarning jami kreditlar hajmi- dagi ulushi 2004-yilda 10 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2006-yilga kelib 20 % ga yetdi. Ikkinchidan, ipoteka kreditlari va uy-joyga bo'lgan talabning ortishi sekyuri- tizatsiya mexanizmining tarqalishiga olib keldi. Bu mexanizm ipoteka bozorida kreditorlar riskini

¹⁷ <http://hub.controlpay.com/h/i/424720170-the-top-50-largest-logistics-companies-in-the-us-2018>

¹⁸ **Manba:** Jahon Banki Guruhining hisoboti, A World Bank Group Flagship Report, Doing Business 2018, 209-bet.

¹⁹ World Investment Report 2014: Investing in the SDGs: An Action Plan. New York and Geneva, 2014. P. 205.

²⁰ Супян В. Б. США: уроки кризиса. //США и Канада, №7, 2010. С. 6.

²¹ Vaxabov, D.Tadjibayeva, Sh.Xajibakiyev, "Jahon Iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlari", Toshkent, 2015 y. B – 96.



qarz oluvchilarning qarz majburiyati asosida obligatsiyalar chiqarish va davlat kafolatlarini berish yo‘li bilan minimallashtirishni nazarda tutadi. Bunda obligatsiyalar ochiq bozorlarda oldi-sotdi qilinadi va kreditorlar riski ularning egalariga o‘tib qoladi. FZT amalga oshirgan pul-kredit siyosatining o‘zgarishi natijasida bu tizim jiddiy inqirozga yuz tutdi. 2004-2006-yillarda FZT foiz stavkalarni 5,25 %gacha ko‘tarishi natijasida 2007-yil boshida AQSh da aholining ipoteka kreditlarini qaytarishi bilan bogiiq muammo kuchaydi²². Qarzdorlarning ko‘chmas mulk garovi bilan olingen kreditlarni qaytarishdan ko‘ra to‘lovlarni toashdan bosh tortish holati ko‘- lami kengaydi va kuchaydi. Banklarning to‘lov qobiliyatiga ega boimagan mijoz- larning ko‘chmas mulklarini qayta sotuvga qo‘yishi natijasida ipoteka bozorida- gi taklif ko‘payib, bozordagi narxlarning keskin pasayishiga olib keldi. 2007-yilda kreditorlar 1,3 mln. ta uy-joyni qarzdorlardan tortib olishni boshlashdi va bu ko‘r- satkich 2006-yilga nisbatan 73 %ga ko‘paydi. 2008-yilda bu ko‘rsatkich 2,3 mln. ta uy-joyga tegishli boiib, 2009-yilning sentyabriga kelib AQSh dagi jami uy-joy ega- lari 14,4 %ga yetdi²³. Amerika ipoteka inqirozining tahlili yana shuni ko‘rsatadiki, ipoteka kreditlari uy-joy narxining 120-130 foizi miqdorida berilgan. Ya’ni, 100 ming dollarga narxlangan uy uchun 120-130 ming dollar kredit ajratilgan. Bu hoi, tabiiyki, qarz oluvchiga kredit qaytarishda qo‘srimcha og‘irlik yuki tushirgan. Shundan so‘ng banklar kreditni qaytara olmagan karzdorlardan olib qo‘yilgan uy-joylarni sota boshlagan. Qarz oluvchilarning keng miqyosda kreditlarni qaytarmasligi qarz oluvchilarning qarz majburiyati ostida chiqarilgan obligatsiyalarning qadrsizlanishi, ipoteka banklari va boshqa ipoteka derivativlariga ega moliyaviy institatlarda likvidlik inqirozini keltirib chiqardi. Bu esa, o‘z navbatida, uy-joy narxining keskin tushib ketishi va uy-joy qurilishi bilan bogiiq tarmoqlarda talabning qisqarishiga olib keldi. 2008-yilning sentyabriga kelib uy-joylar narxi 2006-yilga nisbatan o‘rtacha 20 %ga tushib ketdi.

Xomashyo va neft narxining jadal sur’atlarda oshishi. Bir barrel neft narxining 150 dollargacha oshib ketishi AQSh da benzin narxining ikki baravar oshishiga olib keldi²⁴. Natijada iste’mol va ishlab chiqarish talabining qisqarishi yuz berdi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish dastaklarining samarasizekanligi. Davlatning derivativlarni moliyaviy institutlar tomonidan mustaqil bosh- qarishga ruxsat berishi natijasida 2008-yilda jami derivativlar hajmi 683 trln. dollarni tashkil etdi. Xususan, kreditli, defoltli svoplar hajmi 1988-2008-yillarda 100 baravarga oshgan²⁵.

Amerika aholisi va davlat qarzining yuqoriligi. Amerika aholisining ipoteka bo‘yicha qarzi 1990-yillarda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 46 %ni tashkil etgani holda bu ko‘rsatkich 2008-yilga kelib 78 %ga teng boidi va 10,5 trln. dollarni tashkil etdi. Xususiy qarzlar ulushi iste’mol kreditlari bilan birgalikda 1981-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 123 %ga teng boigan holda, bu ko‘rsatkich 2008-yilda 209 %ni tashkil etdi va deyarli 21 trln. dollarga tenglashdi. Bu davrda banklarning qarzi keskin oshib ketdi. Jumladan, yirik beshta investitsion banklarning («Leman Brazers» — keyinchalik bankrot boidi, «Bear Sterns» va «Meril Linch» — sotildi, «Goldman Saks» va «Morgan Stenli» — tijorat

²² Vaxabov, D.Tadjibayeva, Sh.Xajibakiyev, “Jahon Iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar”, Toshkent, 2015 y. B – 96-97.

²³ U. S. Economic Forecasts. P. 99. <http://www.e-forecasting.com/US Economic Forecasts.htm>.

²⁴ Супян В. Б. США: уроки кризиса. //США и Канада, №7, 2010. С. 5.

²⁵ Economic Report of the President. Washington. 2010. P. 99.



banklariga aylantirildi) qarzi 2004-2007-yillarda 4,1 trln. dollarga yetdi²⁶. Davlatning tashqi qarzi 2006-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 63,9 %ni tashkil etgan bois, ushbu ko'rsatkich 2010-yilga kelib 93,2 % ga teng bo'ldi²⁷. AQSh aholisi va davlat qarzi turli ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Chunki AQSh g'aznachiligining davlat obligatsiyalari ko'rinishidagi davlat qarzi hech qachon bir vaqtning o'zida qaytarilmaydi. Qisqa muddatli iste'mol kreditlari olti oydan bir yil muddatgacha qaytarilishi tufayli jiddiy xavf tug'dirmaydi. Moliyaviy inqirozning tahlili ko'rsatishicha, ipoteka bo'yicha qarzlar esa ularga xizmat ko'rsatish imkoniyati boimagan hollarda iqtisodiyotda jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

AQShning inqirozga qarshi chora-tadbirlari. AQSh hukumati 2008-yildan boshlab qarz oluvchilarga moliyaviy yordam ko'rsatish va moliya institutlariga davlat investitsiyalarini kiritishni ko'zda tutuvchi qator qonun va dasturlar ishlab chiqdi. AQSh da davlat tomonidan shu maqsadda «Iqtisodiy barqarorlik to'g'risida»gi fav-qulodda, «Iqtisodiyotni rag'batlantirish to'g'risida»gi va «Amerikani tiklash va reinvestitsiyalash to'g'risida»²⁸gi qonunlar qabul qilindi.

AQSh hukumatining inqirozga qarshi amalgalash qonun qabul qildi. Ushbu dasturga muvofiq, 700 mlrd. dollar teng mablag' inqirozga uchrayotgan bank va moliya tashkilotlari zararlarini qoplash, shu orqali muammoning chuqurlashib ketishi oldini olish uchun sarflandi. Bu tadbir mamlakatning sobiq moliya vaziri nomi bilan «Poison rejası» deb ataladi va quyidagi chora-tadbirlarni qamrab oldi:

- ✓ AQSh moliya vazirligi bank va moliya kompaniyalarining muammoli ipoteka qimmatbaho qog'ozlarini 700 mlrd. dollar hajmda 2009-yil 31-dekabrga qadar sotib olish huquqiga ega bo'ldi²⁹;

- ✓ AQSh moliya vazirligi tarkibida maxsus boiinm a tuzilib, u federal rezerv tizi-mi, uy-joy qurilish va shaharni rivojlantirish vazirligi, qimmatli qog'ozlar va bir-jalar komissiyasi bilan hamkorlikda bank va kompaniyalardan muammoli aktiv-larni baholash metodikasi va sotib olish mexanizmini ishlab chiqishi kerak;

AQSh iqtisodiyotini tiklash, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan choralar dasturi. 2009-yilning yanvarida AQSh hukumati iqtisodiyotni davlat tomonidan moliyaviy qoilab-quvvatlash maqsadida navbatdagi «Amerikani tiklash va reinvestitsiyalash to'g'risida»³⁰gi qonunni qabul qildi va bu qonunga muvofiq soliq imtiyozlari, ijtimoiy dasturlar, turli investitsiya loyihalari uchun 787 mlrd. dollar mablag' sarflanishi rejalahtirilgan. Ushbu qonun doirasida «Amerikani tiklash va reinvestitsiyalash rejası» ishlab chiqildi va u ikki qismidan iborat. Birinchi qism rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlaridan, ikkinchi qismi esa infratuzilma, investitsiya, fan, ta'lif va ijtimoiy dasturlarni qoilab-quvvatlashni ko'zda tutadi.

XULOSA

²⁶ Супян В. Б. США: уроки кризиса. //США и Канада, №7, 2010. С. 7

²⁷ Оверченко М. Три угрозы мировой экономике. /Ведомости, 14.03.2011.

²⁸ Economic Report of the President. Washington. 2010. P. 75

²⁹ Vaxabov, D.Tadjibayeva, Sh.Xajibakiyev, "Jahon Iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar", Toshkent, 2015 y. B – 98-99.

³⁰ Manba: World Economic Outlook: October 2001. IMF, 2001. P. 185.; World Economic Outlook: October 2014. IMF, 2014. P. 159.



AQSh iqtisodiyoti 2003-yildan beri eng tez sur'atda o'sayapti. Bunga sabab - bozorlar gavjum, xaridor qo'rmasdan mahsulot xarid qilayapti, bizneslar sarmoyani oshirgan. Iqtisodchi Bred Makmillan bu katta o'zgarish ekanini aytadi. "Oxirgi 11 yilda bunaqangi jonlanish kuzatilmagan edi. Bu iqtisodiyot mahkam oyoqqa turib olganini ko'rsatadi. 2015-yilda o'sish yanada tezlashadi deb o'ylayman", - deydi u. Yangilangan raqamlar moliya bozorlarida iliq kutib olindi. Dow Jones aksiyalar indeksi ilk bor 18 ming sonli marrani oshib o'tdi. Yalpi ichki mahsulot – yil davomida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning umumiyligi qiymati bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy holatni eks ettiradi. Ekonomist Maykl Geypenning aytishicha, Amerikada iste'mol darajasi oshgan, lekin biznes hamon sust: "AQShda iqtisod xaridorlarning ishtahasiga bog'liq. Ayni paytda bizneslar bir trillion dollardan oshiq mablag'ni sarmoya qilmay saqlab turibdi. Savdo hozirgidek chaqqon bo'lsa, kompaniyalar yangi loyihalarga sarmoya qiladi degan umid bor".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.M.Alimov, E.A.Maxmudov, N.X.Xaydarov, Jahon Iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar, Toshkent "Zilol buloq nashriyoti" nashriyoti 2020 y.
2. Каршиев, А. А. (2021). О denomskikh sobytiyah v pozdnee Srednivekovye. Bюlletenъ nauki i praktiki, 7(3), 333-336.
3. B.A. Islamov, N.S. Ismailova T.A. Hasanov, I.T.Danaboyev A.S. Zikriyoev, XORIJY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI, Toshkent 2018, 45-77 b.
4. Sattorov F., Abdiyeva, O., & Boboraxmatova, D. (2022). MIRZO ULUG'BEK TARJIMAI HOLI VA ULUG'BEK QABRINING OCHILISHI VA UNING TAVSIFI MASALALARI. Ijtimoiy fanlar, falsafa va madaniyat Evrosiyo jurnali ,
5. Vaxabov, D.Tadjibayeva, Sh.Xajibakiyev, "Jahon Iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar", Toshkent, 2015 y. 88-102 b.
6. Economic Report of the President. Washington. 2010. P. 99.
7. Firdavs Ulug'bek o'g, S. (2023). SALJUQIYLAR SULOLASINING O'RTA OSIYODA TUTGAN O'RNI VA SIYOSIY TARIXI HAQIDA. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 3(1), 71-76.
8. Супян В. Б. США: уроки кризиса. //США и Канада, №7, 2010. С. 7
9. Оверченко М. Три угрозы мировой экономике. /Ведомости, 14.03.2011.
10. Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld, Marc J. Melitz. International Economics, Theory & Policy, Addison-Wesley, 9 edition, 2012, ISBN 10: 0-13-214665-7 ISBN 13: 978-0-13-214665-4